

ADOLATGA BAXSHIDA HAYOT: MAMLAKAT SOBIROVNA VOSIQOVA

Safarova Xolida Baxrom qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi

M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning

2-bosqich 1-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston huquqshunoslik fanining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan yuridik fanlari doktori, professor Mamlakat Vosiqova Sobirovnaning hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan. Unda olimaning biografiyasi, davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimidagi faoliyati, ilmiy izlanishlari hamda yuridik kadrlar tayyorlashdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, uning xizmatlari davlat tomonidan yuksak mukofotlar bilan e'tirof etilgani va nomi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseyga berilgani qayd etiladi. Maqola M.Vosiqovaning adolat va ilm yo'liga baxshida qilgan umrini o'rganishga qaratilgan bo'lib, huquqshunoslik tarixini tadqiq etishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: o'zbek huquqshunosi, yuridik fanlar doktori, yuridik ta'lim taraqqiyoti, ilmiy faoliyat, fidoyi olim, O'zbekiston sud-huquq tizimi rivoji.

Kirish: O'zbekiston huquqshunoslik maktabining shakllanishida va sud-huquq tizimining takomillashuvida bir qator yirik olimlar va amaliyotchilar faoliyat yuritgan. Ulardan biri — yuridik fanlari doktori, professor, davlat va jamoat arbobi Mamlakat Vosiqova Sobirovnadir. U o'zining ilmiy izlanishlari, davlat boshqaruvi va sud-huquq organlaridagi faoliyati hamda yosh huquqshunoslar tarbiyasiga qo'shgan hissasi bilan O'zbekiston huquqshunoslik tarixida munosib o'rin egallaydi.

Mamlakat Vosiqova 1924-yilda Toshkent shahrida oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan. U yoshlik yillaridanoq bilimga bo'lgan qiziqishi va intilishlari bilan ajralib turardi. O'rta maktabni a'lo baholarga tamomlagandan so'ng, u huquqshunoslik sohasiga qiziqib, yuridik oliy ta'lim muassasiga qabul qilindi. Mamlakat Vosiqova insitutda a'lo baholarga o'qiydi va "Stalin" stipendiyasiga muyassar bo'ladi. 1946-

yilda insitutni tamomlaydi. U O'zbekiston huquqiy tizimida turli yuqori lavozimlarda faoliyat yuritadi. Vosiqova 1952-yilda Adliya vazirining o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi. Bu lavozimda u davlat organlari va sud tizimida islohotlar olib borib, adolat tamoyillarini joriy qilishda faol ishtirok etadi. Uning sa'y-harakatlari natijasida O'zbekistonda sud-huquq tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda samarali ishlay boshladi. Uning rahbarligida fuqarolik, jinoyat va oila kodekslariga oid ko'plab sharhlar tayyorlangan hamda qonunlar majmuasi chop etilgan. Ayniqsa, uning "Fuqarolik huquqi" darsligi huquqiy madaniyatni yuksaltirishda katta ro'l o'ynagan. Taniqli olim A.Saidov bu haqda shunday deydi: "Vosiqovaning ilmiy ishlari huquqiy tizimimizning poydevorini mustahkamladi va bugungi yuridik ta'limning asosi bo'lib xizmat qilmoqda." Bu fikr uning ilm-fan va ta'lim sohasidagi ulkan xizmatlarini yana bir bor tasdiqlaydi.

M.Vosiqova O'zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirishga katta e'tibor qaratgan. U ko'plab seminarlar, davra suhbatlari va ma'ruzalar orqali aholiga huquqiy bilimlarni yetkazib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga hissa qo'shdi. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etdi. Mamlakat Vosiqova inson huquqlari himoyasini kuchaytirish bo'yicha ham keng ko'lamli jamoatchilik ishlarini amalga oshirgan. U turli xalqaro va milliy konferensiyalarda ishtirok etib, inson huquqlariga doir xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi yuzasidan takliflar berdi. Shuningdek, inson huquqlarini buzish holatlarini kamaytirish uchun huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlarni yo'lga qo'yishga hissa qo'shgan. Olima fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish masalasida ham faol bo'lgan. U nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining huquqiy faoliyatini ham qo'llab-quvvatlagan. Uning tashabbusi bilan bir qator huquqiy va ijtimoiy loyiha amalga oshirilib, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish maqsad qilingan.

Vosiqova O'zbekistonda ayollarning huquqiy himoyasiga alohida e'tibor qaratdi. U ayollarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularning jamiyatda faol ishtirokini

ta'minlash maqsadida turli loyihalarni amalga oshirdi. Xususan, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish, ayollarni huquqiy himoya qilish bo'yicha qator dasturlarni yo'lga qo'ygan.

Mamlakat Vosiqova sud, notarial idoralar va boshqa tashkilotlarda ishlash uchun o'rta maxsus yuridik ta'lim olgan kadrlar tayyorlab beradigan yuridik texnikum ta'sis etishga katta ehtiyoj borligini asoslab, Ministrlar Soveti raisiga yuridik texnikum tashkil etish lozimligi to'g'risida xat yozadi. Bu sa'y-harakatlari o'z samarasini berib, 1977-yilda Toshkentda yuridik texnikumi ta'sis etilib, yoshlarni o'qishga qabul qilishni boshlaydi. Toshkent viloyat sudi yangi binoga ko'chgani uchun uning eski binosi ta'mirlanib, yuridik texnikumi ixtiyoriga beriladi. Xususan, bugungi kunda o'z faoliyatini olib borayotgan Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey unga hurmat sifatida atalgan bo'lib, bu maskan kelajak huquqshunoslarini tayyorlashda davom etmoqda.

Mamlakat Vosiqovaning faoliyati nafaqat milliy miqyosda balki xalqaro miqyosda ham o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Olima xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borib, O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydonda obro'sini oshirishga hissa qo'shgan. U inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq qilish bo'yicha qator loyihalarda ishtirok etdi va ushbu sohada xalqaro huquqshunoslar hamjamiyati bilan aloqalarni mustahkamladi. Mamlakat Vosiqovaning xalqaro e'tirofi uning UNESCOning "Dunyoga mashhur ayollar" ro'yxatiga kiritilishi bilan tasdiqlangan. Bu e'tirof uning ilmiy ishlari va huquqiy faoliyatining xalqaro maydonda tan olinganini bildiradi. Uning yutuqlari, nafaqat O'zbekiston, balki boshqa davlatlar uchun ham huquqiy bilim va adolatni targ'ib qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Mamlakat Vosiqova 1957-1960-yillar oralig'ida O'zbekiston Oliy Sudi raisining o'rinbosari va 1970-1984-yillar davomida esa O'zbekiston Adliya Vaziri lavozimida faoliyat yuritdi. 1978-yilda yuridik fanlari doktori, 1986-yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. 1994-yilda olimaning mehnatlari yuksak baholanib, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Xulosa. Professor Mamlakat Vosiqova Sobirovna hayoti va faoliyati adolat, huquqiylik va ilmiy fidoyilik timsolidir. Uning davlat boshqaruvi, sud-huquq amaliyoti va ilmiy-pedagogik merosi nafaqat o'z davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham qimmatli tajriba bo'lib qoladi. Shu jihatdan olganda, Mamlakat Vosiqova o'zbek huquqshunosligi tarixida adolatga baxshida umr kechirgan siymo sifatida ehtiromga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000.
2. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши “Uch mashhur o'zbek ayoli” - Toshkent. -2022-yil. 209 bet.
3. UzWikipedia – Mamlakat Vosiqova.